

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLAR YASALISHINING  
O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7795762>

Ergashova D.Sh

O'zMU, Xorijiy filologiya fakulteti,

Magistranti,

(93)5015454

**Annotation:** *This article reflects the similarities and differences in the formation of compound words in English and Uzbek languages.*

**Key words:** *compound words, structural-semantic unit, lexical unit, synthetic, syntactic, asyntactic compound words*

**Аннотация:** *В данной статье отражены сходства и различия в образовании сложных слов в английском и узбекском языках*

**Ключевые слова:** *сложные слова, структурно-семантическая единица, лексическая единица, синтетические, синтаксические, асинтаксические сложные слова*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlar yasalishining o'xshash va farqli tomonlarini aks ettiradi.*

**Kalit so'zlar:** *qo'shma so'zlar, struktur-semantik birlik, leksik birlik, sintetik, sintaktik, asintaktik qo'shma so'zlar*

Qo'shma so'zlar— ikki yoki undan ortiq o'zak morfemaning qo'shilishidan hosil bo'lgan va yagona struktur-semantik birlikni tashkil etgan so'zlar. Masalan, ko'zoynak, bilaguzuk, uchburchak, atirgul, bo'tako'z, nomoz-shomgul, mehmondo'st, balandparvoz, erksevar, jigarrang kabi. Qo'shma so'zlar yasalishi uchun asos bo'lgan so'zlar o'zlarining dastlabki ma'nolarini qisman yoki butunlay yo'qotadi: ular birgalikda tamoman yangi lug'aviy ma'no bildiradi. Chunonchi, osh va qozon so'zlari alohida leksemalar sifatida o'z lug'aviy ma'nolariga ega. Lekin ularning qo'shilishidan hosil bo'lgan oshqozon so'zi mazkur so'zlarning dastlabki ma'nolaridan farqlanuvchi yangi ma'noni — «inson va hayvonlarning ovqat hazm qilish a'zosi» ma'nosini bildiradi. Qo'ziqorin, itog'iz, oqsoch, oqsuyak, kampirchopon singari Qo'shma so'zlar haqida ham shunday fikrni aytish mumkin.

Qo'shma so'zlar qismlari orasidagi ma'no munosabati har xil. Ular o'xshatish, qiyoslash (karnaygul, otquloq, tuyaqush, sheryurak, qo'yko'z), xoslik, biror narsaga mo'ljallanganlik (gultuvak, molqo'ra, olovkurak, tokqaychi, qiymataxta), biror o'rin-joyga mansublik (suvilon, tog'olcha, cho'lyalpiz, qo'qonarava), biror belgiga nisbat berish (achchiqtosh, olaqarg'a, sho'rdanak, qizilishton, Qiziltepa), miqdorga munosabat (beshbarmoq, mingoyoq, qirqog'ayni, Beshariq) va b. ma'nolarni anglatadi. Qo'shma so'zlar strukturasi mavjud sintaktik aloqalarni eslatadi, boshqacha aytganda, Qo'shma so'zlar ega-kesim munosabatida, boshqa-ruv, moslashuv. bitishuv aloqalarida bo'lgan so'z birikmalari asosida yuzaga kelgan.

Mas, go'shtkuydi, kelintushdi kabi Qo'shma so'zlar s ega va kesim munosabatini eslatsa, to'yboshi. tomorqa, ko'zoy-nak kabi Qo'shma so'zlar moslashuvni, kitobsevar, dunyoqarash kabilar boshqaruvni, xom-kalla, ko'ksulton, iskabtopar kabilar esa bitishuvni eslatadi.

Qo'shma so'zlar ot, sifat, ravish va qisman fe'l turkumida tarqalgan. Ularning komponentlari bir so'z turkumiga yoki turli so'z turkumlariga mansub bo'lishi mumkin. Mas, qo'shma otlar ot+ot (belkurak), sifat+ot (oqqush), son+ot (sakkizoyoq), fe'l+ot (Yoril-tosh), ot+fe'l (bo'yo'sar), fe'l+fe'l (Sotib-oldi, ishlabchiqarish) kabi qoliplarda bo'ladi. Boshqa so'z turkumlariga oid Qo'shma so'zlar ham o'ziga xos qoliplar asosida yasaladi.

Tarkibida birdan ortiq o'zak mavjud bo'lgan, ammo tuzilishi jihatidan o'zaro farq qiladigan turli xil leksik birliklarning hammasini qamrab oluvchi bir umumiy terminning - «murakkab so'zlar»ning mavjud bo'lishi bunday leksik birliklarni tasnif qilishni qulaylashtiradi, unga aniqlik kiritadi.

Ingliz tilida qo'shma so'zlar tasnifi biroz murakkab. Chunki u turli xil prinsiplar (tamoyillar) asosida tasnif qilinishi mumkin. Bundan tashqari qo'shma otlarning har bir turi hozirgi zamon ingliz tilidagi mahsuldorligi nuqtai nazaridan ta'riflanishi kerak. Bu kabi ta'riflashdan maqsad - tilda muntazam hosil bo'ladigan qo'shma otlarning tarkibiy va semantik tuzilishlarini aniqlash va ularning sistemalarini o'rnatishdir. L.Blumfil'd va G.Marchand qo'shma so'zlar ichidan sintetik qo'shma so'zlarni ajratadilar. G.Marchand esa ularni qo'shma so'zlar yoki asosiy qo'shma so'zlar (primary and synthetic) bilan taqqoslaydi. (Compounds versus synthetic compounds). U yoki bu so'z yasovchi belgi-xususiyatlarga ega bo'lgan qo'shma so'zlar sintetik qo'shma so'zlar deyiladi. Bu kabi qo'shma so'zlarning xarakterli xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning komponentlaridan birini faqat qo'shma so'z tarkibidagina qo'llash mumkin.

Sintetik qo'shma so'zlar asosan xind-evropa tillari tarixining ilk davrlariga xos, lekin bu ular hozirgi kunda qo'llanmaydi degan ma'no anglatmaydi. Masalan: ingliz tilidagi boot-black «oyoq kiyim tozalovchi» qo'shma so'zidagi ikkinchi komponent black ot so'z turkumiga mansub bo'layapti. U to black tozalash (oyoq kiyim) fe'lidan konversiya yo'li bilan hosil qilingan. Lekin muhimi shundaki black bunday ma'noda faqat qo'shma so'z komponenti bo'lgandagina uchraydi.

Ingliz tilida meat-eater va meat-eating kabi qo'shma so'zlar erkin tarzda hosil qilinishi mumkin, lekin to meat - eat kabi qo'shma fe'llar hosil qilinmaydi; to housekeep kabi fe'llarda esa alohida mustasno holatlari uchraydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bunday qo'shma so'zlar bilan bir qatorda eater va eating ga o'xshash so'zlar bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar ham bor. Yuqorida hosil qilingan qo'shma so'zlarning sintetik harakteri shundan iboratki, eat meat kabi so'z birikmalari faqatgina ular tarkibiga -er va -ing qo'shimchalarini qo'shgandagina qo'shma so'zga mos kelishi mumkin. Meat-eater va meat-eating turidagi so'zlarni yarim sintetik qo'shma so'zlar deb atash mumkin.

L.Blumfil'd qo'shma so'zning komponenti biron bir so'z yasovchi belgilar

bilan ajralib tursa bu ularni mustaqil so'zdan ajratadi deb hisoblaydi. Bu kabi sintetik qo'shma so'zlar qatoriga G.Marchand gate-crasher, housekeeping kabi so'zlarni kiritadi. Qoidaga asosan bu qo'shma so'zlarning ikkinchi komponenti mustaqil qo'llana olmaydi. Chunki crasher va keeping so'zlari qo'shma so'z tarkibida yangi ma'no anglatadi. Alohida holatda qo'llanishi mumkin bo'lgan bu so'zlar qo'shma so'z tarkibidagi ma'noni saqlab qola

olmagani uchun mustaqil qo'llana olmaydi. Tilning tarkibidagi qo'shma otlarni ta'riflash va tasniflash uchun, ularning o'sha tilda tuzilishidagi o'ziga xosliklarini o'rganish kerak bo'ladi.

Ko'p holatlarda tilshunoslar qo'shma so'z turlari tillarda universal degan fikrlar bilan xatolikka yo'l qo'yadilar. Turli tillarda qo'shma so'zlarning asosiy turlari haqiqatda ham qanchadir darajada o'xshash, va bu o'xshashliklarning o'zini ham o'rganib, tekshirish kerak bo'ladi. Lekin so'z qo'shish jarayoni, ayniqsa ularni boshqa til birliklaridan farqlovchi belgi xususiyatlar turli tillarda turlicha tarzda ifodalanadi. Xuddi shu narsa qo'shma so'zlarni hamma tillarda bir sxema asosida tasniflashga imkon bermaydi. Shunga qaramasdan, qo'shma so'zlar tilshunoslar tomonidan turlicha tasniflangan.

L.Blumfil'd qo'shma so'zlarni ularning komponentlari orasidagi o'zaro munosabatga asoslangan holda sintaktik, yarim sintaktik va asintaktik turlarini farqlaydi. U birinchi turga komponentlarning tartibi xuddi sintaktik so'z birikmalaridagi so'z tartibiga o'xshaydigan blackbird tipidagi so'zlarni kiritadi. Ingliz tilida bunday qo'shma so'zlarda so'z tartibi xuddi so'z birikmalari kabi sintaksis qoidalarga asosan quriladi. Ikkinchi turdagi so'zlarga, ya'ni yarim sintaktik turga sintaktik va asintaktik qo'shma so'zlar orasida bo'lgan so'zlarni kiritadi. Bu xildagi qo'shma so'z qismlari orasidagi aloqa sintaktik konstruksiyaga o'xshab ketadi, lekin shu bilan birga aniq bir holatlar bilan so'z birikmasidan uzoqlashadi. Masalan: keep up «pisha, propitanie», upkeep «remont». Asintaktik turga esa bu tildagi sintaksis nuqtai nazaridan qarab bo'lmaydigan, komponentlari o'zaro uyg'unlashib ketgan birikmali so'zlarni kiritadi. (man-made). Bu kabi qo'shma so'zlarda so'z tarkibi ingliz tilida sintaksis qoidalariga qarama-qarshi holatda bo'ladi. Masalan: turlanuvchi so'z birikmalarida sifat turlana olmaydi, turlanuvchi otlar esa sifatdosh yoki sifat oldidan qo'llanilmaydi. Lekin bu kabi asintaktik turdagi qo'shma so'zlar hozirgi zamon ingliz tilidagi ko'plab qo'shma so'zlar uchun xosdir. Masalan: red-hot, pale-blue, rain-driven. Door-knob tipidagi asintaktik qo'shma so'zlarning komponentlari door knob shaklidagi so'z birikmasi sifatida qo'llanilmaydi. Blue-bell, mad-doctor, blacklist (a+n) tipidagi qo'shma so'zlarda komponentlar tartibi blue bell, mad doctor, black list (A+N) birikmalaridagi analogik joylashish tartibiga mos keladi. Door-handle, day-time, spring-lock (p+n) kabi qo'shma so'zlarda esa birinchi ot qismi atributiv funksiyada keladigan spring time, stone steps, peace movement (N+N) kabi o'tli birikmalardagi so'z tartibiga o'xshash bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hojiyev A., O'zbek tilida qo'shma. juft va takroriy so'zlar, T., 1963.
2. Madaliyev B., Hozirgi o'zbek tilida qo'shma so'zlar, T. 1966.
3. Mamatov N., O'zbek tilida qo'shma so'zlar, T., 1982.
4. Yuldasheva N.E., Ingliz va O'zbek tillarida qo'shma otlarning funksional-pragmatik tadqiqi., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi., T., 2021.
6. Bloomfield, L. (1933). Language. New York: Holt
5. Michael Rundell. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners of American English. - U.K. Foreign Language Teaching and Research Press. 2003. - P.1658.
6. Ақобиров С.Ф. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида қўшма сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1965. - № 6. - 560 б.